



TO'G'RI SOLIQLARNI UNDIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH
AMALIYOTI TAHLILI

PhD **Xo'jaqulov Ramshid Yunusovich**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
ORCID: 0009-0006-4677-7511
ramshidxujaqulov82@icloud.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada respublikamizda so'nggi yillarda mamlakatda soliq va moliya sohalarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, investitsiya muhitini yaxshilash hamda biznes doiralarining ishonchini yanada mustahkamlashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar yoritilgan. Shu bilan birga, iqtisodiyotda yashirin aylanma savdo va umumiy ovqatlanish, avtotransportda tashish, uy-joy qurilishi va ta'mirlash, turarjoy xizmatlarini ko'rsatish kabi sohalar o'r ganilib, xorij tajribasi, mamlakatimizda uni qo'llash bo'yicha ilmiy-amaliy xulosa va takliflar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: soliq tushumlari, risklar tahlili, xavflar, samaradorlik, raqamli platforma, usullar va vositalar, ilg'or axborot-kommunikasiya texnologiyalari, tahlil, optimallashtirish, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi.

АНАЛИЗ ПРАКТИКИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДОЛОГИИ
СБОРА ПРЯМЫХ НАЛОГОВ

PhD **Ходжасақулов Рамишд Юнусович**
Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В статье освещаются масштабные реформы в налоговой и финансовой сферах нашей республики за последние годы, направленные на создание благоприятных условий для ведения бизнеса в стране, улучшение инвестиционного климата, дальнейшее укрепление доверия деловых кругов. При этом изучаются такие сферы экономики, как подпольная торговля и общественное питание, автотранспорт, жилищное строительство и ремонт, оказание бытовых услуг, делаются научные и практические выводы по зарубежному опыту и его применению в нашей стране и формулируются предложения.

Ключевые слова: налоговые поступления, анализ рисков, риски, эффективность, цифровая платформа, методы и инструменты, передовые информационно-коммуникационные технологии, анализ, оптимизация, налоговые льготы, налоговая ставка.

ANALYSIS OF THE PRACTICE OF IMPROVING THE METHODOLOGY OF DIRECT TAX COLLECTION

PhD Khojakulov Ramshid Yunusovich
Tashkent State University of Economics

Abstract. This article covers large-scale reforms in the tax and financial sectors of our republic in recent years aimed at creating favorable conditions for conducting business activities in the country, improving the investment climate, and further strengthening the confidence of business circles. At the same time, such areas as illegal trade and catering, motor transport, housing construction, and repair, and the provision of residential services in the economy are studied, and scientific and practical conclusions and proposals are formulated on the basis of foreign experience and its application in our country.

Keywords: tax revenues, risk analysis, risks, efficiency, digital platform, methods and tools, advanced information and communication technologies, analysis, optimization, tax incentives, tax rate.

Kirish.

Jahonda budjet siyosatining rivojlantirilishi mahalliy budjet daromadlar bazasini tizimli yuksaltirish bilan bog'liq bo'lmoqda. Iqtisodiy yuksalgan va yuksalayotgan mamlakatlarda mahalliy budjet soliqli daromadlari rentabellik ko'rsatkichlari baland hisoblanmoqda. Xususan, mahalliy budgetning yuqori ko'rsatkichlari Janubiy Koreyada 22,2 foiz, Portugaliyada 39 foiz, Buyuk Britaniyada 33 foiz va Norvegiyada 58 foizni tashkil etadi. Shu sababdan, xorijiy davlatlar tajribasiga tayangan holda iqtisodiyotda mahalliy budjet daromadlar bazasini kengaytirish, belgilangan tartibda o'z vaqtida soliq solish amaliyoti va ularni undirish mexanizmi bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borishni taqazo etmoqda.

Xalqaro soliqqa tortish tizimi, soliq tamoillari va soliq ma'murchilagini takomillashtirish orqali mahalliy budjet daromadlar bazasini yuksaltirish va mahalliy soliqni undirish mexanizmini ilmiy asoslangan yangi yo'nalishlar asosida belgilash va amaliyotga joriy etish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Shuning uchun hududlarni va ularda faoliyat olib borayotgan soliq to'lovchilarining daromadlarini oshirish yuzasidan soliq siyosatida soliqni ta'sirchanlik muhitini oshirishda ilmiy-izlanishlar ustuvorlik kasb etmoqda.

Adabiyotlar sharhi.

Iqtisodiy nuqtai nazardan, soliq va soliqdan tashqari tushumlarning o'sishi uchun qo'shimcha zaxiralarni topish va jalb qilish nafaqat mahalliy byudjetlarni to'ldirish, balki zamonaviy huquqiy makonni shakllantirish, tadbirkorlikni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar, turli ijtimoiy yo'naltirilgan shahar dasturlari va ularni amalga oshirish masalasidir.

Rossiyalik iqtisodchilardan Vlasova (2015)ning fikriga ko'ra "Mahalliy byudjetlarning daromadli salohiyati davlat-xususiy sheriklikni yanada faolroq amalga oshirishni, soliq imtiyozlarini joriy etish va byurokratik jarayonlarni tezlashtirish va soddalashtirish orqali biznes yuritishni iloji boricha osonlashtirishni, noishlab chiqarish xarajatlari ulushini kamaytirishni va ishlab chiqarish xarajatlarini ko'paytirishni talab qiladi. Natijada mintaqadagi byudjet siyosati samaradorligining oshishiga olib keladi. Mahalliy byudjetlarning daromad salohiyatini oshirish bo'yicha kompleks qaror uzoq muddatli istiqbolda butun mintqa iqtisodiyoti uchun kuchli ijobiy ta'sir ko'rsatadi".

Yana bir Rossiyalik iqtisodchi, professor Suxarev (2020) barcha darajadagi byudjet daromadlari manbalarini tubdan o'zgartirish, byudjet mexanizmini rag'batlantirishga yo'naltirilgan xarajatlarni samarali faoliyat natijalarni joriy etish tizimini ilgari suradi. Jumladan, Brizgalin (2002) o'z tadqiqotlarida soliq tushumlari bilan soliq yuki o'rtasidagi bog'liqlarni tadqiq qilib uning soliq tushumlari prognoziga ta'sirini baholagan bo'lsa, Panskov

va Кынъазевлар (2003) byudjetni prognoz qilishda soliq tushumlarini prognozlashtirishning ahamiyatini ko'rsatib bergan. Xudoyqulov (2019) o'z tadqiqotlarida ekonometrik usullar orqali davlat byudjeti jami daromadlarining 2018-2023 yillarga mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlari aniqlangan, PhD U.Pardaev davlat byudjeti daromadlarini prognozlash masalalarini tadqiq etgan, i.f.d. Urmonov (2019) 2018-2020-yillarga mo'ljallangan yagona soliq to'lovining soliq tushumlari prognoz ko'rsatkichlarini aniqlagan. Bizning fikrimizcha byudjeti daromadlaridagi ulushini ortib borishi, soliq to'lovchilar sonining o'sishi, soliq imtiyozlari, soliq qarzlari va ortiqcha (oldindan) to'lovlar dinamikasidagi o'zgarishlariga olib keladi. Bundan tashqari davlat tomonidan soliqlar orqali tartibga solish raqobatbardoshlikka ta'sir qilish omillaridan biri bo'lsada, soliq tizimi korxonalarining raqobatbardoshligiga turli xil yo'llar bilan ta'sir qiladi. Soliq solish investitsiya va innovatsion jarayonlarga ta'sir qilish orqali korxonalarining raqobatbardoshligiga bilvosita ta'sir qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tahlil jarayonida ma'lumotlarni statistik guruhlash, qiyosiy va trendli tahlil usullaridan foydalanildi. Maqolada iqtisodchi olimlarning davlat moliya tizimining dolzarb masalalaridan biri sifatida mahalliy byudjetlar barqarorligini ta'minlashga qaratilgan ilmiy-nazariy qarashlari qiyosiy tahlil qilingan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Mamlakatimizda mahalliy budget daromad va xarajatlar tizimi mahalliy ehtiyojlarni qondirishni hamda hududlarning iqtisodiy rivojlanishi markazlashgan tartibda bajariladigan tadbirlarning amalga oshirish bilan bog'liq holda ijro etishga imkon bermoqda. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Barcha biznes toifalari uchun soliq yukini kamaytirish va qulaylashtirish, shu asosda ishlab chiqarishni va soliqqa tortiladigan bazani kengaytirish zarur" (Mirziyoyev, 2018). Mahalliy budgetga yangi soliq solish manbalarining izlab topish, soliqqa tortishning zamonaviy texnologiyalar orqali tezkor tadbiq etish va mavjud hisoblangan soliqni undirish mexanizmini takomillashtirish boyicha yetarli ishlar amalga oshirilgan bo'lsada, lekin mahalliy soliqni undirish muammolarining haqiqiy holati hali to'liq tadqiq etilmagan. Shuning uchun mahalliy budget soliq daromadlari faoliyatini hamda soliqqa tortish bazasini o'rganish va tahliliy masalalarni amalga oshirish mazkur mavzuning dolzarbligini belgilab beradi.

Mahalliy budgetning daromadlarini muctahkamlash borasida mahalliy hukumatning soliq undirish va soliq bazalarini kengaytirishga bo'lgan qiziqishlarini rag'batlantirishni takomillashtirish zarurdir.

Fikrlarimizni oddiy tarzda yuritadigan bo'lsak, hududlarning soliq siyosati va salohiyati, avvalo tegishli pog'onali budgetga real ravishda yo'naltirish mumkin bo'lgan daromadlarning miqdori nazarda tutiladi.

Belgilangan huquqiy tomondan qaralganda soliq siyosati amaldagi budgetga undirilishi mumkin bo'lgan soliq va yig'imlarning to'g'ri hisoblanishi va budgetga undirilishi darajasini ham bildiradi.

Umumiyl ma'noda esa, bu hududlarning rivojlanishining soliq va yig'imlar undirilishining imkoniyatlari ko'rsatkichlarini va hududlarning soliqqa tortiladigan resurslarining jami hajmini ifodalaydi. Ko'p hollarda soliq siyosati va salohiyati amaldagi qonunchilikka muvofiq hududlarning soliq daromadlarining mahalliy budgetga tushiriladigan qismi sifatida ham talqin qilin mumkin.

Mahalliy budgetlarning muhim daromad manbai bo'lib xizmat qilishi mumkin bo'lgan salmoqli miqdordagi yer uchastkalari yer solig'ini to'lashdan ozod etildi. Shu munosabat bilan, soliq to'lovchilarning ayrim toifalari uchun imtiyozlarni saqlab qolishning maqsadga muvofiqligi, shuningdek, mahalliy budgetlarning yo'qotilgan soliqli daromadlari uchun davlat budgetidan to'lov masalalarni ko'rib chiqish zarurdir. Jumladan:

soliqlarni undirish va boshqarish tizimi samaradorligini oshirish uchun zaxiralarni izlash, buning uchun yer to'lovlar hisobidan mahalliy budgetlar daromad manbalarini shakllantirishda aniqlangan muammoli masalalarning yetarli va samarali tahlillarni amalga oshirish;

mol-mulkdan foydalanishni tartibga solish usuli sifatida yer uchastkalarini ijaraga berish tartiblarini yoki ijaraga berilgan yer uchastkalarini inventarizatsiya qilish;

yer uchastkalari soliqqa tortish va hududiy hokimlklar o'rtaida undirish, hisob-kitob bazasini shakllantirish, yerlarni hisoblash va to'lashni nazorat qilish vakolatini o'z-o'zini bosharish organlariga berish orqali munosabatlarni tartibga solish;

soliq to'lovlarini o'z vaqtida va muammoli soliq munosabatlarini hal qilish.

Mahalliy budgetning daromadlarini mustahkamlash hozirgi budget islohatlarining asosiy yo'nalishi hisoblanmoqda. Bu borada aylanmadan olinadigan soliq, mol-mulk solig'i, yer solig'i va tabiiy resurslarni soliqqa tortish asosiy rol o'ynaydi. Keyingi samarali manba bo'lib, mahallabay tizimi orqali yangi soliq solish obyektlarini aniqlash muxum tizim hisoblanadi.

Prezidentmiz Shavkat Mirziyoyev raisligida 2024-yilda makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash bo'yicha ustuvor vazifalar yuzasidan videoselektor yig'ilishida soliq tizimi va soliqchilar faoliyati qayta ko'rib chiqish vazifasi qo'yildi. Mamlakatimizda soliq tizimi tashkiliy tuzilmasi isloh qilinadigan bo'ldi (1-rasmga qarang).



1-rasm. Mahalliy budget daromadlarini takomillashtirish yuzasidan yangi soliq tizimi tuzilmasi

Manba: Yangi soliq tizimi tuzilmasining muallif tomonidan ishlansasi.

Bunda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan 40 mingta budget tashkiloti bilan ishslash vazifasi tumanlardan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat Soliq

Qo'mitasida yangi tashkil qilinadigan budget tashkilotlari inspeksiyasiga o'tkaziladi va inspeksiya to'liq raqamlashtirilgan holda G'aznachilik elektron tizimiga integratsiya qilinadi.

Soliq qarzdarligi bilan ishslash bo'yicha ham O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat Soliq Qo'mitasi qoshida soliq qarzini undirish inspeksiyasi tashkil etiladi va unga Majburiy ijro byurosida mavjud vakolatlar beriladi. Bu bilan hududlarda qo'shimcha 200 nafar soliq hodimlarini "Mahallabay" ishslash tizimiga o'tkazish imkon bo'ladi.

Mamlakatimizda soliq tushumining 50 foizini beradigan 80 ta eng yirik korxona va 35 ta tijorat banki bilan ishlaydigan alohida tizim tashkil etiladi va bu bilan yirik soliq to'lovchilar inspeksiya tarkibida yangi tuzilma tashkil etiladi. Ushbu tuzilma O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi bilan bevosita ishlashi belgilandi.

Yangi tashkil etiladigan soliq tizimi vazifa nuqtai nazaridan davlat budget va mahalliy budget daromadlarini oshirishga xizmat qiladi.

Iqtisodchi olim Xayriddinovning (2011) fikricha, "Har bir mahalliy ma'muriy hududdagi soliq tizimi tomonidan undirilishi lozim bo'lgan umum davlat solig'i bo'yicha soliq summalarining ma'lum bir qismini bevosita mahalliy budgetning ixtiyorlariga biriktirilgan daromadlar ko'rinishida qat'iy hissada va doimiy asosda qoldirilishi oldindan belgilanib qo'yilishi kerakligini, bunda, asosiy e'tibor daromadlarni budget tizimi bo'g'lnlari o'rtasida qayta taqsimlashning asosiy kombinatsion variantlaridan biri bo'lgan me'yoriy ajratmalar tizimini takomillashtirishga qaratilishi, shuningdek, bozor iqtisodiyotining talablaridan kelib chiqqan holda, mahalliy budget daromad bazalari barqarorligini ta'minlashda ularning biriktirilgan daromadlariga ustuvorlik berish maqsadga muvofiqligini" ta'kidlaydi (Xayriddinov, 2011).

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar, mahalliy boshqaruvi organlarining vakolatlarini kengaytirilishi natijasida ularga ma'muriy hududning ijtimoiy - iqtisodiy barqarorligini ta'minlash vazifasi yuklatildi. Amaldagi qonunchilikka asosan hududlar reja ko'rsatkichlarini belgilangan muddatlarda bajarishlari uchun ma'lum moliyaviy baza talab qilinadi. Ushbu bazaning asosi mahalliy budget hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 65-moddasida "Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakldagi mulk tashkil etadi. Davlat iste'molchilarining huquqiy ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligi, barcha mulk shakllarining teng huquqiyligini va huquqiy jihatdan barobar muhofaza etilishi kafolatlaydi"¹ deb belgilab qo'yilgan.

Davlat xususiy mulkni soliqqa tortish orqali jismoniy va yuridik shaxslarga qarashli bo'lgan mulkning qonuniyligini hamda ularning harakatini nazorat qiladi. Bu esa jamiyatdagi barcha mol-mulkning hisob-kitobini to'g'ri yuritish va ulardan belgilangan miqdorlarda soliq undirib borish mexanizmini takomillashtirishni taqozo etadi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida raqobat bozorining jadal sur'atlar bilan rivojlanib borishi hamda narxlarning keskin o'zgarishi bevosita mol-mulklarning tarkibiy qismi bo'lgan asosiy vositalar qiymatiga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qo'ymaydi. Bu holatni esa davlat faqat korxona miqyosida emas, balki jamiyat miqyosida ham to'g'ri va aniq hisobi yuritilishini talab etadi. Mol-mulk qiymatini qayta baholash natijalarini esa ularni soliqqa tortishda ham inobatga olish zaruriyatini belgilaydi. Mol-mulk solig'inining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati davlat budgetining shakllanishi va uning daromadlarini oshirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat fuqarolar mol-mulkining ko'payishidan bevosita manfaatdor bo'lganligi sababli, ularga tegishli bo'lgan mulklar daxlsizligini ta'minlashni o'z zimmasiga olib, qonuniyligini kafolatlaydi. Yuridik va jismoniy shaxslar esa o'z mol-mulklarning daxlsizligi ta'minlanganligi evaziga o'zlariga tegishli bo'lgan mol-mulklaridan davlatga belgilangan tartib va miqdorlarda soliq to'laydilar. To'langan soliq mahalliy hokimiyatlar tomonidan aholini ijtimoiy himoyalash, ularning turmush darajasini yaxshilash kabi tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltiriladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 65-moddasasi.

Hozirgi davlat budgeti uning butun hilma-hil vazifalarini aks ettiradigan murakkab, ko'p ko'rinishli hujjat hisoblanadi. Avvalo budgetda davlatlar xarajatlari va daromadlari tartibi o'z aksini topadi. Xarajatlar budget instrumentlarining sarflanish yo'nalishlari va maqsadlarini ko'rsatadi.

Mahalliy budgetning daromad qismini shakllantirish ko'pgina muammolarga ega bo'lib, ularni xal etish ko'p jixatdan soliq tizimi va siyosatiga bog'liqdir. Soliqqa oid qonunlarga tez-tez tuzatishlar kiritish ko'pincha korxonalarning moliyaviy axvolini og'irlashtirib, ishlab chiqarish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi va uni izdan chiqaradi. Mahalliy soliq to'lovchilarga o'z faoliyatining moliyaviy natijalarini prognozlash imkonini beradigan tusdagi qonunlar, aksincha, ishlab chiqarishning barqaror bo'lishiga, investisiya faoliyatini rivojlantirishga imkon beradi. Shuning uchun budget daromadlari soxasidagi siyosat asosiga soliq siyosatini oldindan taxmin qilish, uning davomiyligi qoidasi qo'yilishi kerak. Bu esa soliq tizimiga uning negizlarini buzmaydigan va uni takomillashtirishga yo'naltirilgan o'zgartirishlarni kiritish mumkinligini istisno etmaydi. Yalpi milliy daromadni qayta taqsimlash, mamlakatda yangidan yaratilgan qiymatning tegishli qismini davlat ixtiyoriga olish, davlat barcha daromadlarining umumiy moddiy asosi hisoblanadi.

O'zbekistonda budgetlararo munosabatlarni isloh qilishda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi markaziy apparati boshqaruv xodimlaridan budget inspektorlari lavozimlari joriy etildi va ularning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi (Qaror, 2017):

mahalliy budget parametrlarining budget to'g'risidagi qonun hujjatlari, belgilangan normativlar hamda mazkur qaror asosida shakllantirilishi va ijro etilishini monitoring qilish;

budget tashkilotlari va budget mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetasi, shtatlar jadvalini sifatli tuzilishi hamda uning ijrosi bo'yicha nazoratni ta'minlash;

mahalliy budgetda aylanma kassa mablag'larining saqlanishi, daromadlar prognozining oshirib bajarilishi va erkin qoldiq mablag'lari miqdorlarining to'g'ri aniqlanishi ustidan monitoring olib borish;

mahalliy budget ijrosi to'g'risidagi moliyaviy hisobotlar normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan tartib va muddatlarda xalq deputatlari Kengashi va yuqori moliya organiga taqdim etilishini ta'minlash;

mahalliy budget hisobidan budget tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan davlat xaridlarining, shu jumladan, e'lonlar berish muddatlari belgilanishi hamda to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzilishi maqsadga muvofiqligini nazorat qilish zarurdir.

Hududiy mahallalar tomonidan jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i va yer solig'ini aholining soliq to'lash savodxonligini oshirish orqali undirishga ko'maklashish va har bir mahalla o'zining muammosini mustaqil hal etishi uchun 2023-yil 1-yanvardan boshlab soliqni undirish ko'rsatkichi past bo'lgan tumanlarda "Mahalla budgeti" tizimi joriy etildi (Qaror, 2017). Bundan maqsad mahalladan tushgan jismoniy yer va mol-mulk solig'ining 10 foizi "Mahalla budgeti"ga qoldirishi belgilandi. Tartibga soluvchi soliq har yili turli darajadagi budget o'rtasida taqchillikni qoplash maqsadida qayta taqsimlanadi.

Mahalliy soliq va yig'imlar to'g'risidagi qonunchilikning farqli xususiyati shundaki, Qoraqalpog'iston Respublikasiga o'z mahalliy solig'i va yig'imlarini belgilash huquqi berilgan.

Davlat mahalliy soliqni davlat budgetini shakllantirish uchun amalga kiritadi, soliq birorta aniq xarajatni qoplash maqsadiga ega emas, bu ayrim turdag'i daromadlardan tushadigan tushumlardan amalga oshiriladigan xarajatlar ularga bog'liq bo'lib qolishining oldini olish zarurati bilan asoslangan. Ammo, bir qancha hollarda umumiy soliq bilan birga, maqsadli soliq ham belgilanadi, ularning amalga kiritilishi iqtisodiy faoliyatda ijobjiy holat hisoblanadi.

Mahalliy soliq tizimi respublika budget tizimining tarkibiy qismi bo'lib, davlat undiradigan soliq va yig'imlarning, shuningdek ularni undirish shakl va usullarining majmuidir. U davlat xarajatlarining katta qismini moliyaviy resurslar bilan ta'minlash va takror ishlab chiqarish jarayoniga va ijtimoiy munosabatlar soxasiga ta'sir ko'rsatishning iqtisodiy usullarini amalga oshirish uchun foydalaniladi.

Mahalliy soliq tizimining tarkibi jamiyatning barcha ijtimoiy qatlamlarini, eng avvalo ijtimoiy jihatdan eng nochor tabaqalar manfaatlariga tushuvchi hamda respublika aholisining turmush darajasida zarur muvozanatni ta'minlashni ko'zda tutadi. Mahalliy soliq tizimini isloh qilish nafaqat davlat budgetining ehtiyojlarini qondirish uchun, balki yaqin istiqbolda budgetning hayotiy qobiliyatini yaxshilash maqsadida davlat daromadlari elastikligini oshirish uchun ham zarurdir. Shuningdek, mahalliy budget daromadlarining yig'implarning ham o'rni beqiyosdir.

Soliq kodeksining 17-moddasiga asosan chet davlatlar avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun, yuk ko'tarish quvvati 10 tonnadan yuqori bo'lgan yuk avtotransporti vositalari va tirkamalarining avtomobil yo'llari bo'ylab harakatlanishi huquqi uchun hamda alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish huquqi uchun yig'implarni (Kodeks, 2020) hisoblab chiqarish va to'lash bilan tartibga solinadi.

Yuridik shaxslarning alohida bo'linmalari mazkur shaxslarning soliq va yig'implarni to'lash bo'yicha majburiyatlarini soliq kodeksda nazarda tutilgan hollarda va tartibda ushbu alohida bo'linmalar joylashgan yeri bo'yicha bajaradi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlardan soliqlarni undirish mexanizmida faqat hisobvaraq fakturalar asosida va bank hisob raqamlari orqali amalga oshirilsa, bank hisobraqamlari mavjud bo'lмаган jismoniy shaxslar tomonidan esa naqd pul shaklda yoki plastik kartalar orqali mobil ilovalardan foydalangan hoda to'lov qilish imkoniyatlari mavjud. Bu jarayonda aksariyat hollarda jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlarga e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Shuningdek, soliq to'lovchi jismoniy va yuridik shaxslarga soliq ma'muriyatichilagini takomilashtirish yuzasidan imkoniyatlarni berish orqali soliq to'lovchilar tomonidan soliq majburiyatlarini to'lov mexanizmlari orqali undirish imkoniyati bo'la turib, to'lovlarini vaqtida bajarishga sharoit yaratilmas ekan, soliq to'lovchilarda boqimanda kayfiyati saqlanib qolaveradi.

Mahalliy soliqlarni undirish mexanizmi soliq to'lovchilarni pog'onalarga ajratish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa mahalliy budget daromadlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Mahalliy budget daromadlari hisoblangan mahalliy soliq va yig'implarni undirilishiga ta'sir qiluvchi omillar asosan yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan soliq va yig'implar bo'yicha yig'iluvchanlik darjasini pasayishiga olib keladi. Oqibatda davlat o'zining majburiyatini o'z vaqtida bajara olmasligiga olib keladi. Umumiy qilib aytganda, mahalliy soliq to'lovchilar tomonidan to'lanmagan mablag'lar hududning iqtisodiy ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi va soliqlarni undirishda zamonaviy axborotlar bazasidan foydalanishga undaydi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarni soliq majburiyatlarini bajarish jarayonida mahalliy soliq va yig'implarni omillar ta'siri natijasida undirish imkonni bo'lмаганда, soliq qarzdorligi yuzaga kelish havfi tug'iladi. Bunda mahalliy soliq va yig'implar hisobiga vujudga kelgan soliq qarzdorligi soliq to'lovchilarning to'lov qobiliyatini pasayishiga olib keladi.

Quyidagi 2-rasmida mahalliy budget soliqli daromadlarini undirishga ta'sir qiluvchi omillar malakalangan.



2-rasm. Mahalliy budget soliqli daromadlarini undirishga ta'sir qiluvchi omillar

Manba: muallif ishlanmasi.

Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda mahalliy budget tizimi bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar juda kam. Amalga oshirilgan tadqiqotlar aksariyati biriktirilgan soliq turlariga bog'liq bo'lib, ularda funksiyalar, shakllar, usullar, elementlar, obyekt va subyektlarga tizimli yondashuvlar kam miqdorni tashkil etadi.

Har bir hududni o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarish uchun moliyaviy resurslar bilan ta'minlash soliqlar va budgetlararo transfertlarni taqsimlash jarayonida iqtisodiy munosabatlар amalga oshiriladi. Bunda hududlarning daromadlarini tenglashtirish uchun moliyaviy resurslarni ajratiladi.

Soliqlarni budget tizimi darajalari bo'yicha taqsimlashi zaruriy shartlari mahalliy soliqlarning davlat soliqlariga nisbatan ahamiyatlidir. Mahalliy soliqlar davlat xizmatlarida imtiyozlar tamoyilining ustuvorligi asoslandi. Bunda mahalliy hokimiyat organlari mahalla aholisi manfaatlarini ko'zlab rezidentlar hisobidan tushadigan daromadlar miqdoridan moliyalashtirilish zarurdir.

Mahalliy hokimiyat organlar uchun mahalliy budget daromadlarini shakllantirish vositalari sifatida mahalliy soliq tushumlari barqaror bo'lishi kerak.

Mahalliy daromadlarni shakllantirishda soliqlar yuqori roli bilan ajralib turishi ma'lum. Mamlakatimizda mahalliy soliqlarni shakllantirish amaliyoti mahalliy soliqqa tortish sohasidagi nazariy ishlanmalarga ko'p jihatdan zid keladi.

Soliq qonunchiligining mahalliy soliq hisoblangan mol-mulk solig'i bilan bog'liq muammolari ham amaliyot ko'p uchraydi. Bunday maommolarga, birinchi navbatda, ommaviy baholashni hal qilinmagan masalalari, yer va mol-mulklarga bo'lgan huquqlarni ro'yxatga olish, mulk solig'ini boshqarish tizimidagi nuqson va ularning to'lanishini nazorat qilish tizimi

takomillashtirish zarur. Binobarin, mahalliy hokimiyat organlari tomonidan inventarizatsiya o'tkazish va mulk registrlarini joriy qilishni qamrab olishi kerak.

Bu holatda asosiy muammo, shubhasiz, mulkni ro'yxatga olishda protsessual jihatdan hujjat ishlari murakkab va vaqt talab qiluvchi va moliyaviy mexanizmidir.

Soliq solinadigan bazani aniqlash davlat tashkilotlari xizmatlarining asossiz yuqori narxi va ularning xodimlari sonini etarli emasligi asosiy mammo hisoblanadi.

Mol-mulkni ro'yxatga olish xizmatlarini ko'rsatadigan va ko'pincha muayyan davlat muassasalari hududida joylashgan tijorat tuzilmalarining shakllanishini hisobga olsak, bu cheklolvar xususiy firmalarning xizmatlariga talabni oshirishga qaratilgan chora-tadbir deb hisoblash mumkin.

Yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i to'g'risidagi qonun bilan belgilangan soliq stavkalari bugungi kunda bozor iqtisodiyoti mezonlariga javob bermaydi.

Ushbu bosqichdagi muammo amaldagi qonunchilikka muvofiq soliqqa tortilmaydigan ko'plab tugallanmagan qurilish obyektlarining mavjudligidir.

Asosiy muammo shundaki, soliq xizmatida budgetga tushmaydigan va shunga mos ravishda uning hisoboti predmeti bo'lмаган soliqlarni yig'ish bo'yicha harakatlarni amalga oshirishga undamaydi.

Soliq organlari soliq to'lovchilarning konsolidatsiyalangan budget oldidagi qarzlarini faqat umum davlat soliqlari orqali qoplashga intiladi. Bundan tashqari, hozirgi vaqtda soliq organlari mahalliy soliqlarni undirish nuqtai nazaridan moliyaviy jihatdan mustahkamlanmagan.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mahalliy budgetlarni daromadlarini ta'minlash masalalariga yechim izlash zarurdir. Ularni hal qilishning mumkin bo'lgan usullaridan biri mahalliy soliqlar va yig'implarni belgilash tamoyillarini o'rganish zarurat hisoblanadi.

Mahalliy budgetlarga subsidiyalarni qisqartirishning yana bir yo'nalishi subsidiyalash mexanizmi o'rniiga tartibga soluvchi soliqlar bo'yicha tabaqalashtirilgan standartlardan eng keng foydalanish hisoblanadi.

Mamlakatimizda yer va mol-mulk solig'ini undirishning amaldagi tartibi hududiy hokimiyat organlari va ma'sul idoralarining axborot tizimlari o'rtasidagi idoralalararo axborotlarga bo'g'lash zarur deb hisoblaymiz.

Shunda, axborotning o'zaro ta'siri mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha asosiy taklif shundan iboratki, to'lanmay qolgan soliqlarni zamонавиу axborot texnologiyalari orqali hududiy xokimlik idoralari bilan integratsiya qilish zarurdir.

Ushbu texnologiyalar orqali quyidagi xususiyatlarga ega bo'lgan ma'lumotlarni almashish imkoniyati ochiladi:

o'zaro soliq tizimiga oid aloqaning har bir ishtirokchisi reestrning to'liq yuritish;

soliq tushumlarini hamkorlikda undirish bo'yicha ishlarni amalga oshirish;

soliq va hokimlik organlari bilan soliq masalasi bo'yicha ma'lumot almashishni yo'lga qo'yildi va bu bilan soliq tizimining barqaror ishlashi ta'minlanadi.

Xulosa va takliflar.

Mahalliy budget daromadlarini takomillashtirish mahalliy soliqning yig'iluvchanlik darajasini yanada oshirish va bunda mahalliy davlat xokimiyati organlari tomonidan nazorat qilish, rag'batlantirish va tabaqalashtirilgan soliq stavkalari joriy qilish kabi aniq chora-tadbirlar kabi rejasি ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq.

Hududlarning mahalliy soliq va yig'implarni undirish mexanizmi bo'yicha baholash tizimini joriy qilish va mahalliy soliqni undirilishida hududiy soliq va o'z-o'zini boshqarish organlari hamkorlikda ish olib borishi hududlardagi soliq tushumlarini ortishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar / Jumepamypa / Reference:

Kodeks (2020) O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi- Toshkent: G'afur G'ulom nashriyot uyi. - 640 b.

Mirziyoyev Sh.M. (2018) "Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng olyi baxodir". - T: "O'zbekiston", -123 bet.

Qaror (2017) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-iyundagi PQ-3042-soni "Mahalliy davlat hokimiyyati organlarining budjet vakolatlarini kengaytirish va mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishdagi mas'uliyatini oshirish to'g'risida"gi Qarori.

Qaror (2022) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-dekabrdagi "Mahalla budjeti" tizimini joriy etish orqali mahallalarning moliyaviy imkoniyatini yanada kengaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-458-soni Qarori.

Xayriddinov A.B. (2011) "Mahalliy budjet daromad bazalarining barqarorligini ta'minlash yo'llari". I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan diss. avtoreferati. -T.: b. 13.

Брызгалин А.В. (2002) «Налоговая оптимизация: принципы, методы, рекомендации». -М.: С.54.

Власова Ю.А., Абрамова А.И. (2015) Проблемы укрепления доходного потенциала региональных бюджетов в россии на примере калужской области//Креативная экономика. Т. 9. № 10. С. 1255-1276.

Пансков В., Кынязев В. (2003) «Налоги и налогообложение». Учебник. -М.: МЦФЭР. С.61

Пинская М.Р. (2004) Основы теории налоговых и налогообложений / Под научн. ред.д.э.н., проф. В.С. Барда: Монография. – М.: Издательство «Палеотип»., – 77-78 с.

Сухарев О.С. (2020) Инвестиции в трансакционный сектор и в финансовые активы: влияние на экономический рост. Финансы: теория и практика. 24(3):60–80. DOI:

Урмонов Ж. (2019) Иқтисодиёт фанлари доктори (DcS) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. <http://diss.natlib.uz>. 2019 йил. Б. 27, 218-220, 225-230.

Худойкулов С.К. (2019) Солиқ тушумларини прогноз қилиш методологиясини тақомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари доктори (DcS) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси автореферати. Б. 14-16; 20-21; 28-29.,

Хўжакулов Рамшид Юнусовичнинг "Бюджет даромадларининг шакллантиришда тўғри солиқларнинг аҳамиятини ошириш" (phd) илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореферати. – Тошкент, 2023.